O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

«Tasdiqlayman»
Urganch davlat universiteti rektori
__________ B.Abdullayev
2024-yil "29" 08

# TF. "XXI ASR PSIXOLOGIYASI" FANINING O‘QUV DASTURI

Oliy ta`limning bilim sohasi: 300 000- Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot
Ta’lim sohasi: 310000 – Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar
Ta’lim yo`nalishi: 70310901 - Psixologiya

Urganch-2024

Mazkur o`quv fan dasturi 70310901 - Psixologiya magistratura mutaxassisliklari malaka talabi va o`quv rejasi asosida ishlab chiqilgan.

Mazkur o`quv dastur "Pedagogika va psixologiya" kafedrasining 2024-yil "27" 08.dagi yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqlash uchun tavsiya etilgan (1-sonli bayonnoma).

**Pedagogika va psixologiya kafedrasi mudiri:** ____________ **M.Djumaniyazova**

Mazkur o'quv dastur "Sport faoliyati,pedagogika va psixologiya" fakulteti Kengashining 2024-yil "28" 08 dagi yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqlash uchun tavsiya etilgan. (1-sonli bayonnoma).

**Sport faoliyati,pedagogika va psixologiya fakultet dekani:** ____________ **A.Xudayberganov**

Urganch davlat universiteti kengashining 2024-yil "29" 08 dagi 1 -sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

**O'quv ishlari bo'yicha prorektor** ____________ **S.U.Xodjaniyazov**

**Akademik faoliyat va registrator departamenti boshlig'i:** ____________ **G'.R.Matlatipov**



| Fan/modul kodi XXIAP 1204 | | O'quv yili 2024-2025 | Semestr 2 | ECTS - Kreditlar 4 | |
|---|---|---|---|---|---|
| Fan/modul turi Tanlov fan | | Ta'lim tili O'zbek | | Haftadagi dars soatlari 4 | |
| 1. | Fanning nomi | | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | "XXI ASR PSIXOLOGIYASI" | | 60 | 60 | 120 |

## I.FANNING MAZMUNI:

**Fanni o`qitishdan maqsad** – XXI asr psixologiyasi sohasi muammolarining dolzarb muammolari va ularni tadqiq qilish texnologiyasi yuzasidan chuqur bilim berishdan iboratdir.

**Fanning vazifalari:** XXI asr psixologiyasi muammolari metodologiyasi va fenomenologiyasini o'rganish;
- biosferik va neosferik yondashuvlar munosabatini zamonaviy taxlil qilishga o'rganish;
- psixologik kategoriyalar va ularning mohiyatini ochib berish;
- dolzarb muammolar yuzasidan tadqiqot o'tkazishning psixologik texnologiyasi bilan tanishtirish.

## II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

### II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

**1-mavzu: Psixologiyaning metodologik masalalari.**

Psixologiya fanining predmeti ko'lami zamon talabi bilan belgilanadi. Hozirgi zamon psixologiyasining bosh maqsadi va asosiy vazifalari. Fanning metodologik asoslari to'g'risida mulohazalar va ularning psixologik tavsifi. Dialektik materializm va uning cheklanganligi. Murosa ijtimoiy holatlar yechimining muhim omili sifatida.

Taraqqiyotni harakatlantiruvchi kuchlari va ularning psixologik tahlili. Jamiyat va zamon extiyoji majmuasi dasturiamal tariqasida. Ajdodlarimiz ta'limoti tadqiqot uchun muhim manbai ekanligi. Sotsial (ijtimoiy) garmoniya, guruhiy xulq, begonalanishning ildizlari va ularning psixologik tavsifi. Milliylik va umumiylik munosabat.

**2-mavzu. Psixologiya fanining kategoriyalari talqini.**

Psixologiya kategoriyalari to'g'risidagi mulohazalar tarixi. Kategoriyalar ko'lami va miqdori yuzasidan baxslar. Ularning tuzilishi bo'yicha nazariy fikrlar. Chet el psixologiyasida keyingi davrda mazkur muammoga nisbatan qarashlar. Kategoriyalarni ta'riflash va baholashning xilma-xilligi.

XX asr oxirida kategoriyalar mohiyatiga oid bahslar va ularning ilmiy psixologiya uchun ahamiyati. Ilmiy yondashuvlarning jamiyat talabi bilan mutanosiblashuvi.

Hozirgi davrda XXI asrda psixologik kategoriyalar klassifikatsiyasining o'ziga xosligi. Asosiy psixologik kategoriyalar ierarxiyasi: shaxs, faoliyat, ong, motivatsiya, muomala. Ba'zi bir psixologik yo'nalishlarda kategoriyalar ko'lami: obraz va plan. Hissiy bilish va aqliy bilishning yirik kategoriya sifatida talqin qilinishi.

**3-mavzu: Shaxs xulqi, faoliyati va muomalasi kamolot negizi ekanligi.**

Shaxslararo munosabatni aks ettiruvchi asosiy omil shaxs xulqi ekanligi. Faoliyat shaxs ongliligini bosh mezoni sifatida. Muomala-til, tafakkur, munosabat vositalar, quroli tariqasida shaxs bilan jamiyat.

**4-mavzu: Shaxs xulqi, faoliyati va muomalasi kamolot negizi ekanligi.**

Tabiat bilan individ o'rtasidagi regulyatorligi. Xulq, faoliyat muomala integratsiyasi shaxsni baholash kafolati tariqasida. Komil inson muammosi aks ettirishning asosiy uch shakli tomonidan amalga oshirilishi ob'ektiv haqiqat ekanligi.

**5-mavzu: Shaxs xulqi, faoliyati va muomalasi kamolot negizi ekanligi**

Xulq, faoliyat va muomala mutanosibligi komillikka intilish ifodasi sifatida. Shaxsning betakrorligi o'lchami - uning xulqi, faoliyati,muomalasi mujassamligidir. Shaxs va jamiyat. Shaxs va borliq. Shaxs va millat. Shaxs va taraqqiyot.

**6-mavzu. Ichki regulyatsiya va uning psixologik bayoni.**

Shaxsning ichki regulyatsiyasi to'g'risidagi ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot davridagi mulohazalar va ularning xolisona tahlili. Ichki regulyatsiya tuzilishi va talqini. Anglashilgan ehtiyoj shaxsning xulqi, faoliyati, muomalasi, bilish jarayonlari regulyatori sifatida. Ehtiyoj klassifikatsiyasi asoslari va ularning xozirgi zamondagi talqini. Ehtiyoj va nafs munosabati. Ehtiyoj va sabr.

Anglashilgan motivlar xulq, faoliyat, muomala va bilish jarayonlari regulyatori tariqasida. XXI asrda motivlar va motivatsiyalar klassifikatsiyasi.

Yuksak xislar motivatsiya tariqasida. Motivatsiya (motivlar)ning milliyligi. Motivatsiya va ijtimoiy ustanovka. Motivatsiya va vaziyat. Motivatsiya va muhit.

Qiziqish motiv sifatida. Qiziqishning ijtimoiy muhitga qarab o'zgarishi, qiziqish va ma'naviyatlilik. Qiziqish barqarorligi, turg'unligi regulyator tariqasida. Istak, intilish, xohish, tilak, orzu, ideal ichki regulyatsiya sifatida namoyon bo'lishi va uning psixologik talqini.

**7-mavzu. Psixologik prinsiplarining XXI asrda talqini.**

Prinsiplarning psixologik holatlar, xodisalar, xususiyatlar, xislatlar, mexanizmlar orasida tutgan o'rni va mavqei. Prinsiplarning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot davomidagi klassifikatsiyasi va talqini. Prinsiplar ustuvorligining o'zgarishi va uning sabablarini izohlash xilma-xilligi. Prinsiplar va ularning ma'lumotlar ishonchligi, ilmiyligi mezonlaridagi roli.

Determinizm prinsipi va uning XXI asrdagi talqini. Unga nisbatan munosabatlarning konsepsiyalarda aks etishi. Ong va faoliyat birligi prinsipi. Uning ijtimoiy-tarixiy ahamiyati va hozirgi zamondagi tahlili. Prinsip mohiyatiga taalluqli nazariyalar talqini.

Monizm prinsipi va uning XXI asrdagi talqini. Monizm – prinsipiga oid qarashlar va ularning mohiyati. Taraqqiyot tushunchasining talqiniga oid mulohazalar. Monizm prinsipining shaxs betakrorligi konsepsiyasiga nisbatan kafolat ekanligi. Monizmning davr talabiga binoan o'zgarish xususiyatlari. Tarixiylik prinsipi va uning insonshunoslik fani uchun ahamiyati. Tarixiylik ijtimoiy manbalar, institutlar. evolyusiya mahsullari haqqoniyligi garovi ekanligi.

**8-mavzu. Ongning psixologik tavsifi va uning darajalari tog'risida baxslar.**

Ong aks ettirishning muhim shakli ekanligi. Ong taraqqiyoti to'g'risida mulohazalar. Ong tuzilishi va uning tahliliga taalluqli qarashlar. Ongning in'ikos imkoniyati unga nisbatan tavsiflar majmuasida mujassamlashuvi. Ong tavsiflari yuzasidan talqinlar rang-barangligi.

Ongning XXI asrdagi talqini. Ong darajalari haqida konsepsiyalar va ularning umumiyligi, xususiyligi, alohidaligi. Ong darajalari klassifikatsiyasi. Ongsizlik va uning mohiyati, ahamiyati, roli.

Ongsizlikning psixologik talqini va uning o'ziga xosligi. Onglilikning psixofiziologik mexanizmlari to'g'risida mulohazalar. Ongostlilik ongning alohida darajasi ekanligi. Ongostlilikning psixologik mohiyati, holati va talqini. Ongostlilikning psixofiziologik mexanizmlari, asoslari to'g'risida tushuncha.

O'ta onglilik (super onglilik) va uning psixologik mohiyati. O'ta onglilik tarixiy omil, shaxsning betakrorligini dalillash negizi sifatida. Daxolik va o'ta onglilik. Taraqqiyot (progress) va o'ta onglilik (super onglilik).



Individual, guruhiy, milliy va ijtimoiy ong to'g'risida mulohazalar. O'zini o'zi anglash, milliy o'zlikni anglash, kasbiy o'zlikni anglash.

**9-mavzu. Kognitiv psixologiya va borliq munosabati.**

Bilish jarayonlari va ularning atrof-muxitni anglashdagi ahamiyati. Bilish jarayonlarining imkoniyatlari to'g'risidagi XXI asr ma'lumotlari tahlili.

Bilishga nisbatan nazariyalarning xilma-xilligi. Bilish bosqichlarining hozirgi zamon talqini (harakatli hissiy, aqliy, ijodiy-tarixiy).

**10-mavzu. Kognitiv psixologiya va borliq munosabati.**

Hissiy bilish jarayonlari (sezgi, idrok, tasavvur) bo'yicha yondashuvlar tahlili. Aqliy bilish jarayonlari (xotira, tafakkur, hayol) va ularning yangi jabhalari yuzasidan mulohazalar.

Intellekt va uning psixologik tahlili. Intellektning tuzilishi va uning bosqichlari to'g'risida tushuncha.

**11-mavzu. Kognitiv psixologiya va borliq munosabati.**

Kognitivizm va uning mohiyati. Kognitiv yondashuvlar tahlili. Sistemali va kompleks yondashuvlar ishonchliligi, validligi, xaqqoniyligi, reprezentativligi. Kognitiv model va modellashtirish. Matematik modellashtirish mohiyati.

**12-mavzu. Shaxsning individual tipologik xususiyatlariga XXI asrdagi yondashuvlar.**

Temperamentning umumiy masalalari. Temperament klassifikatsiyasi. Oliy nerv faoliyatining turi va temperament. Mehnat va o'quv faoliyatida temperamentning roli. Temperament va uning ta'sirga beriluvchanligi. Temperament va ish bilarmonlik o'yinlari. Temperament va psixologik trening. Temperament va makro, mikro, mize muhit.

**13-mavzu. Shaxsning individual tipologik xususiyatlariga XXI asrdagi yondashuvlar.**

Xarakter to'g'risida hozirgi zamon talqini. Xarakter nazariyalari. Xarakter strukturasi bo'yicha mulohazalar. Xarakter va muhit. Xarakterning tabiati va namoyon bo'lishi. Xarakter va o'zini o'zi kamol toptirish.

**14-mavzu. Shaxsning individual tipologik xususiyatlariga XXI asrdagi yondashuvlar.**

Qobiliyat, iste'dod, talant, geniylik to'g'risida mulohazalar. Ularning tabiiy (biologik) va ijtimoiy (sotsial) shartlanganligi munosabatlari. Imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish omillari. Maxsus treninglar va ularning rezervlar ochilishiga ta'siri. Ularni tashxis (diagnoz) va bashorat qilish shart-sharoitlari mavjudligi.

**15-mavzu. Milliy psixologiya muammolari.**

Milliy xarakter. Milliy his-tuyg'u (hissiyot). Milliy qiyofa. Milliy ong. Milliy ta'b. Milliy hulq-atvor. Milliy til. Milliy madaniyat. Milliy ma'naviyat, qadriyat, urf-illat, an'ana, rasm-rusum, marosim. Milliy kuy va milliy raqs. Milliy ijodiyot.

## III. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlarida talabalar bilan ishlashda ko'proq ularning mustaqil fikrlashlari, har bir mavzuga ijodiy yondoshishlariga erishish muhim. Shuning uchun seminar mashg'ulotlarda talabalar faolligini ta'minlash uchun interfaol usullar (guruhlarda ishlash, klaster tahlili, kontent tahlili, SWOT tahlil) hamda prezentatsiyalar himoyasi talabalarda fanga bo'lgan qiziqishning ortishi, mustaqil fikrlashga intilish, topshiriqlarga kreativ yondashishga xizmat qiladi. Bundan tashqari seminar mashg'ulotlarini maxsus klinikalarda olib borish yaxshi samara beradi.

**Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

1. Psixologiyaning metodologik masalalari.
2. Psixologiya fanining kategoriyalari talqini.

3. Shaxs xulqi, faoliyati va muomalasi kamolot negizi ekanligi.
4. Shaxs xulqi, faoliyati va muomalasi kamolot negizi ekanligi.
5. Shaxs xulqi, faoliyati va muomalasi kamolot negizi ekanligi.
6. Ichki regulyatsiya va uning psixologik bayoni.
7. Psixologik prinsiplarining XXI asrda talqini.
8. Ongning psixologik tavsifi va uning darajalari tog`risida baxslar.
9. Kognitiv psixologiya va borliq munosabati.
10. Kognitiv psixologiya va borliq munosabati.
11. Kognitiv psixologiya va borliq munosabati.
12. Shaxsning individual tipologik xususiyatlariga XXI asrdagi yondashuvlar.
13. Shaxsning individual tipologik xususiyatlariga XXI asrdagi yondashuvlar.
14. Shaxsning individual tipologik xususiyatlariga XXI asrdagi yondashuvlar.
15. Milliy psixologiya muammolari.

## IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

### Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular

1. Psixologiyaning metodologik masalalari.
2. Hozirgi zamon psixologiyasining bosh maqsadi va asosiy vazifalari.
3. Taraqqiyotni harakatlantiruvchi kuchlari va ularning psixologik tahlili.
4. Psixologiya fanining kategoriyalari talqini.
5. Psixologiya kategoriyalari to'g'risidagi mulohazalar tarixi.
6. Chet el psixologiyasida keyingi davrda mazkur muammoga nisbatan qarashlar.
7. Hozirgi davrda XXI asrda psixologik kategoriyalar klassifikatsiyasining o'ziga xosligi.
8. Shaxs xulqi, faoliyati va muomalasi kamolot negizi ekanligi.
9. Faoliyat shaxs ongliligini bosh mezoni sifatida.
10. Tabiat bilan individ o'rtasidagi regulyatorligi.
11. Shaxs va jamiyat.
12. Ichki regulyatsiya va uning psixologik bayoni.
13. Ichki regulyatsiya tuzilishi va talqini.
14. Ehtiyoj va sabr.
15. Qiziqish motiv sifatida.
16. Psixologik prinsiplarining XXI asrda talqini.
17. Ong va faoliyat birligi prinsipi.
18. Monizm prinsipi va uning XXI asrdagi talqini.
19. Ongning psixologik tavsifi va uning darajalari tog`risida baxslar.
20. Ong taraqqiyoti to'g'risida mulohazalar.
21. Ongning XXI asrdagi talqini.
22. Ongsizlikning psixologik talqini va uning o'ziga xosligi.
23. O'ta onglilik (super onglilik) va uning psixologik mohiyati.
24. Daholik va o'ta onglilik.
25. Kognitiv psixologiya va borliq munosabati.
26. Bilish jarayonlari va ularning atrof-muxitni anglashdagi ahamiyati.
27. Hissiy bilish jarayonlari (sezgi, idrok, tasavvur) bo'yicha yondashuvlar tahlili.
28. Aqliy bilish jarayonlari (xotira, tafakkur, hayol) va ularning yangi jabhalari yuzasidan mulohazalar.
29. Intellekt va uning psixologik tahlili.
30. Kognitivizm va uning mohiyati.
31. Matematik modellashtirish mohiyati.
32. Shaxsning individual tipologik xususiyatlariga XXI asrdagi yondashuvlar.
33. Temperamentning umumiy masalalari.



34. Oliy nerv faoliyatining turi va temperament.
35. Temperament va psixologik trening.
36. Xarakter nazariyalari.
37. Xarakter va muhit.
38. Xarakterning tabiati va namoyon bo'lishi.
39. Qobiliyat, iste'dod, talant, geniylik to'g'risida mulohazalar.
40. Imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish omillari.
41. Milliy psixologiya muammolari.
42. Milliy xarakter.
43. Milliy his-tuyg'u (hissiyot).
44. Milliy hulq-atvor.
45. Milliy ijodiyot.

**Mustaqil ta'lim bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar:**

Mustaqil ishlar uchun belgilangan mavzularni talabalar mustaqil ravishda ko'rsatilgan adabiyatlar yordamida o'zlashtirib joriy, oraliq nazorat shaklida yoki darslardan tashqari vaqtda referat yoki muloqot tarzida topshiradilar.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi shakllardan foydalanishlari tavsiya etiladi:

- Darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzulari ustida ishlash;
- Tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismini o'zlashtirish;
- Maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- Talabaning o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fan bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish;

## V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

XXI asr psixologiyasi kursini o'rganish jarayonida magistr:

-ilmiy bilish usullari
-ilmiy muammolar va ularni taxlil etish yo'llari;
-ta'lim va tarbiyaning uzviyligi
-pedagogik jarayonning qonuniyatlari va tamoyillari;
-psixologik bilimlarning umumiy nazariy asoslari;
-o'qitish va tarbiyalash sharoitlarida psixik jarayonlar xakida tasavvurga ega bulishi;
O'quv-tarbiya jarayonining loyixalash;
-ta'lim va tarbiyada milliylik va individuallik;
-pedagogik jarayonni tashkil qilish shakllari;
-XXI asr psixologiyasiga qonuniyatlari haqida bilimlar tizimini bilishi va ulardan foydalana bilishi;
-eksperimentlarni o'tkazish;
-ilmiy yechimlar bo'yicha xulosa va tavsiyalarni shakllantirish;
-psixologik xarakteristikalarini aniqlash;
-o'qitish metodlarining optimal nisbatlarini tanlash;
-pedagogik o'qitish;
-har-xil sharoitlarda ta'lim jarayonini tashkil qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

## VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- interfaol ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyasi;
- modulli ta'lim texnologiyasi;
- muammoli ta'lim texnologiyasi;
- kooperativ ta'lim texnologiyasi;
- refleksiv ta'lim texnologiyasi;

• chizma-tasviriy modellar (mantiqiy graf, freym modeli, tayanch konspekt, semantis tarmoq, intellekt karta).

## VII. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

## VIII. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari

### Asosiy adabiyotlar


1. G'oziev E.G'. "XXI asr psixologiyasi" kursidan ma'ruzalar matni
2. Дружинин В.Н. (под ред.) - Психология XXI века. Учебник для вузов-2003.
3. Goziev E.G. "Psixologiya metodologiyasi". T, 2013 y. - 312 b.
4. F.I.Xaydarov, N.I.Xalilova "Umumiy psixologiya" Toshkent-2010.


### Qo'shimcha adabiyotlar:


5. Mirziyov Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. "zbekiston" 2016.
6. Mirziyov Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston" 2017
7. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2017—2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakat strategiyasi. 7 yanvar 2017 yil.
8. Muxamedova D.G., Mullabaeva H.M., Rasulov A.I. Umumiy psixologiya. Darslik. – Toshkent, "Mumtoz so'z" 2018.-2876 b.
9. G'oziev E.G'. Psixologiya-1. -T., O'zMU «Universitet», 2003.
10. Лурия А.Р. Лексии по общей психологии. – John Wiley & Sons, 2001. - 608 p.


### Internet resurslari:


11. http://www.ziyonet. uz
12. http://pedagog.uz
13. www.lex.uz
14. www.gov.uz
15. www.tdpu.uz
16. www.pedagog.uz
17. www.psyxology.uz
18. www.nuqta.intal.uz
19. www.psyxology.net,ru


| |
|---|
| Urganch davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. |
| **Fan/modul uchun mas'ullar:**<br>N.Salayeva - UrDU, "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi katta o'qituvchisi, ps.f.n. |
| **Taqrizchilar:**<br>M.X.Djumaniyazova - UrDU, "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi dotsenti, PhD<br>E.R.Raximova - UrDU, "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi dost.v.b, PhD |